



O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM RIVOJLANISHINI OSHIRISH USULLARI

Jo`raeva Shoira Baxriddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, «Jismobiy tarbiya va sport» kafedrası o`qituvchi

Annotatsiya: *Maqolada ekoturizmni rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish omillari va ulardan foydalanish yo'llari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ekoturizmni rivojlantirish, xalqaro turizm, ekoturizm samaradorligi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yilda turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan 11 hujjat, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 25 ta normativ-huquqiy hujjat imzolandi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan boshlab yoshlarni har tomonlama jismoniy, aqliy va ahloqiy-ma'naviy tarbiyalash, ularni barkamol, o'z ona vatanining maqsadlari uchun kurashadigan insonlar darajdasida tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Bu boradagi ishlar muntazam, izchil davom ettirilib o'z samarasini bermoqda.

Ekologik sayohat, umuman turizm iqtisodiyoti dunyo davlatlarining asosiy daromad manbalaridan hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanish yo'lida bo'lgan davlatlarning milliy daromadida turizmdan kelayotgan daromadlar katta ulushni tashkil etadi. Amerikadagi "Sarguzasht sayohatchilar jamiyati" ning hisoblariga ko'ra bir yilda (1998-1999 yillar misolida) 78 million amerikalik, sayohatlarga 220 milliard dollar sarflab, tabiat qo'ynida dam olib qaytgan. Keniya milliy daromadining 80% sayohatdan oladi.

Chilida 30 % aholi sayyoxlarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'ladi. Butun jahon turistik tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra 2025 yilga borib yer sharida turizm yanada rivojlanadi yoki sayyoxatchilar soni 1,6 mlrd kishidan oshishi ko'zda tutilmoqda. Olingan ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilda sayyoxlar soni 5.3 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa 2017 yilda sayyohatchilarning soni o'rtacha 2,69 mln qayd etgan, yani sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o'sishni ko'rsatib ikki baravarga oshgan. 2016 yilda esa ularning soni 2,07 mln nafarni qayd etgan. Dunyoning qator mamlakatlari Turkiya, Yegipet, Tailand, Malaziya, Kipr, Hindiston, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda sayoxatni rivojlantirish uchun qator tadbirlar bajarilmoqda. Bu mamlakatlarda turizmni rivojlantirishga bo'lgan sababning maqsadi shuki, mamlakat byudjetiga turizm orqali katta valyuta mablag'i tushiriladi. Vatanimiz mustaqilligi o'lkamizda ekologik sayyoxlikni



rivojlantirishga yanada keng imkoniyatlarni yaratdi. Respublikamiz viloyatlari boy sayyoxlik va ekologik sayyoxlik imkoniyatlarga ega.

Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obidalar umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan, ayniqsa, chet ellik sayyohlarni o'lkamizning boy tarixiy merosi, arxitekturasi, arxeologik va tabiat yodgorliklari hamisha qiziqtirib kelgan. Ekologik sayoxat konsepsiyasi e'lon qilinganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. U o'tgan asrning 80-yillarida vujudga kelgan bo'lsada, bugungi kunda u jahon xalqlarining atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatni saqlash ishlari bo'yicha ulkan natijalarga erishdi. Bunga Respublikamizda "O'zbekiston ekologik harakati"ning va uning viloyat, shahar va tumanlarda bo'limlarining tashkil etilishi va ular olib borayotgan ishlar yaqqol misol bo'la oladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasi 2011 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlanib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 37 foiz o'rniga 50,5 foizni tashkil etdi. Keyingi 10yil ichida ekologik sayohat bilan shug'ullanayotgan davlatlar soni 47 tadan 123 taga yetib oldi. Ekologik sayohatlar firmalar soni ikki barobarga, xizmat ko'rsatish darajasi 3 barobarga ko'paydi.

Respublikamiz hududi XIV ekologik sayoxat tumanlarga ajratilgan. Ularga Ustyurt, Orol va orolbo'yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarko'l, Sirdaryo, Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo kiritilgan.

Bular ichida Zomin, Baxmal, Forish, Chortoq, Nurota, Kitob, Shahrisabz, Urgut, Boysun, Bo'stonliq va bu tumanlari boy ekoturistik industriyaga ega. Bu tumanlarda tog'li zonalarga sayohatni, shuningdek, sport, ekologik sayoxat va rekreasiyani, reabilitasiya va relaksasiya tadbirlarini rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar bor. O'zbekiston ekologik sayohat salohiyatining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, mamlakatimizda tabiatdagi relyef shakllarining tog', tekislik, cho'l, adir, dasht kabi barcha ko'rinishlari mavjud. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ana shunday ekologik sayohat salohiyatga ega hududlarning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, shakllangan infratuzilma va investision xususiyatlaridan kelib chiqib, ekologik sayohat zonalar barpo etish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olish, sayyoxlik industriyasini rivojlantirishga mahalliy aholini jalb etish katta iqtisodiy foyda berishi mumkin.

Ayniqsa, chet ellik sayyohlar uchun o'lkamizning boy tarixiy merosi, arxitekturasi, arxeologik va monumental yodgorliklari, tabiat qo'yniga, jumladan,



tog' bag'riga sayohat, alpinizm, agroturizm kabi sayohat turlari juda qiziqarlidir. Ekologik sayohatning rivojlanishi yurtimizda ilm-fan, ma'rifat va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishda, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini asrash, bio xilma-xillikni saqlash singari muhim yo'nalishlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi bandligi, turmush darajasi va farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samarasini oshirishda ham hududlarda ekologik sayohatni keng yo'lga qo'yish ijobiy natijalar berishi tayindir.

Respublikada mehnatga layoqatli aholining ko'pchilik qismi qishloqlarda yashaydi. Qishloq joylarida mehnat resurslari tez o'sib borayotganligi va ularning ish o'rinlariga nisbatan ko'pligi qishloq mehnat bozoridagi aholining mehnat qilish jarayonlariga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, xususan, turizm rivoji uchun juda katta mehnat imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Qishloq hududlarida ish bilan band bo'lmagan ortiqcha ishchi kuchini ekologik turizm singari sayyohlikning jozibador turiga qayta taqsimlash samaralidir.

Ayniqsa, Zomin, Baxmal, Forish (Jizzax viloyati), Chortoq (Namangan viloyati), Nurota (Navoiy viloyati), Kitob, Shahrisabz (Qashqadaryo viloyati), Urgut (Samarqand viloyati), Boysun (Surxondaryo viloyati), Bo'stonliq (Toshkent viloyati) kabi respublikamiz tumanlari boy ekoturistik potensialga ega. Respublikamizning ayni shu tumanlarida tog'li zonalarga sayohatni, shuningdek, sport, ekologik sayoxat va rekreasiyani rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar bor. O'zbekiston ekologik sayoxatlar salohiyatining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, mamlakatimizda tabiatdagi relyef shakllarining tog', tekislik, cho'l, adir, dasht kabi barcha ko'rinishlari mavjud. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ana shunday ekoturistik salohiyatga ega hududlarning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, shakllangan infratuzilma va investision xususiyatlaridan kelib chiqib, ekologik sayoxat komplekslar barpo etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. MAMIROVA, D. (2019). ASSOCIATION OF PHYSICAL PREPAREDNESS AND ACTOR MASTERY IN A SINGLE APPROACH DURING FUTURE SPECIALISTS TRAINING. *Culture and Arts of Central Asia*, 9(1), 68-72.
2. Mamirova, D. T. (2019). INFLUENCE OF EASTERN HERITAGE ON THE FORMATION OF PERSONAL DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 430-433.



3. Мамирова, Д. Т. (2019). Основы организации и управления массовыми видами спорта в системе непрерывного образования. *Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта*, (7 (173)), 113-117.

4. Мамирова, Д. Т. (2021). Физиологические изменения в организме при физических нагрузках и средства восстановления. *Международный инженерный журнал исследований и разработок*, 6(1).

5. Mamirova, D. T. (2019). SOCIAL FACTORS AND MOTIVATION AS A WAY OF INCREASING ATTRACTING STUDENT YOUTH TO REGULAR ACTIVITIES BY PHYSICAL CULTURE AND MASS SPORTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 370-375.

6. Мамирова, Д. Т. (2021). Национальная методология управления спортивно-массовыми мероприятиями. *Universum: филология и искусствоведение*, (1 (79)), 4-6.

7. Мамирова, Д. Т. (2022). ПРИЧИНЫ ПЕРНАПРЯЖЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ У ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТОМ ЛЮДЕЙ И МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ. *Journal of new century innovations*, 10(3), 103-108.

8. ПЛАНИРОВАНИЕ УЧЕБНОГО ЗАНЯТИЯ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ. Академические исследования в области педагогических наук, 2 (10), 867-870.

9. Mamirova, D. T., Abraykulova, N. E., Fazlieva, Z. K., Zokirova, S. M., & Jumaev, S. S. (2022). The Manifestation Of Creative Potential By Integrating Physical Culture And Departments Of The Youth Movement In Uzbekistan. *Journal of Positive School Psychology*, 6(7), 5221-5228.

10. Tavakulovna, M. D., Erkinovna, A. N., Kamarbekovna, F. Z., Muratovna, Z. S., & Saidovich, J. S. (2022). Physical education and "union of youth" as an application of creative potential in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 430-439.

11. Tavakulovna, M. D., & Kamarbekovna, F. Z. (2021). THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROFESSIONAL APPLIED TRAINING IN THE UNIVERSITIES OF ARTS AND CULTURE. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(1), 6-6.

12. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022). METHODOLOGY FOR CARRYING OUT THE EDUCATIONAL PROCESS IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 457-459.



13. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022). OECD Principles of Corporate Governance and Well Organized Corporate Governance in Liverpool FC. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 4, 55-58.

14. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022, March). USE OF MULTIMEDIA IN THE TRAINING PROCESS OF YOUNG GRECO-ROMAN WRESTLERS. In *Archive of Conferences* (pp. 32-37).